



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI REKTORINING  
BUYRUG‘I**

5-iyun 2024-yil

**390-U**

**Buxoro sh.**

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining  
2024-yil 24-maydagi PF-81-sonli ”Oliy ta’lim  
tashkilotlariga o‘qishga qabul qilish va davlat  
buyurtmasini joylashtirish tizimini  
takomillashtirish to‘g‘risida”gi farmoni  
ijrosini ta’minlash to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 24-maydagi PF-81-sonli ”Oliy ta’lim tashkilotlariga o‘qishga qabul qilish va davlat buyurtmasini joylashtirish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi farmoniga muvofiq 2024/2025-o‘quv yili uchun universitetga qabul jarayonlarini yuqori saviyada tashkil etishga tayyorgarlik ko‘rish maqsadida

**B U Y U R A M A N:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 24-maydagi PF-81-sonli ”Oliy ta’lim tashkilotlariga o‘qishga qabul qilish va davlat buyurtmasini joylashtirish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi farmoni rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.
2. Buxoro davlat universitetining 2024/2025-o‘quv yili qabul komissiyasi ishchi guruhi tarkibi 1-ilovaga, 2024/2025-o‘quv yili qabul jarayoni hamda kasbiy (ijodiy) imtihonlarga tayyorgarlik ko‘rish va ularni yuqori saviyada o‘tkazish bo‘yicha yo‘l xarita 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

**3. 2024/2025 o‘quv yili qabul komissiyasi ishchi guruhiga:**

-O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 24-maydagi PF-81-sonli ”Oliy ta’lim tashkilotlariga o‘qishga qabul qilish va davlat buyurtmasini oylashtirish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi farmoni mazmun-mohiyatini chuqur o‘rganish;

-2024/2025 o‘quv yilidan boshlab, davlat oliy va professional ta’lim muassasalariga qabul qilish bo‘yicha imtihonlar “avval test, so‘ng tanlov” tamoyiliga muvofiq bir vaqtda o‘tkazilishini inobatga olish va abituriyentlar va ularning ota-onalariga tushuntirish;

-universitetning moddiy-texnik bazasi, professor-o‘qituvchilar tarkibi va o‘quv-metodik ta’minotga muvofiq keyingi o‘quv yili parametrlarini shakllantirish va oliv ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga taqdim etish;

-2024/2025 o‘quv yilidan boshlab bakalavriat va magistraturaga qabul qabul qilingan talabalarga ta’lim granti bir o‘quv yili uchun ajratilishini inobatga olish;

-ta’lim granti ikkinchi va undan keyingi kurslarda yuqori akademik reyting ko‘rsatgichlariga erishgan va ijtimoiy faol talabalar orasidan universitet tomonidan tabaqalashtirilgan tartibda qayta taqsimlanishini yo‘lga qo‘yish;

-ta’lim granti tahsil olgan talabalarning o‘qishni tomomlagandan so‘ng 3 yil ishlab berish majburiyati bekor qilinganligini inobatga olish;

**-joriy yilning 5-iyuniga qadar** qabul komissiyasi faoliyatini yo‘lga qo‘yish, komissiya tarkibiga tajribali xodimlarni kiritish;

-abituriyentlarga universitet (OTM)lar to‘g‘risida to‘liq ma'lumot taqdim etib borish, ayniqsa kasbga yo‘naltirish ishlarini to‘g‘ri tashkil etish;

-universitet rahbariyati tomonidan qabulni yuqori saviyada tashkil etish, biron bir norozilikni keltirib chiqarmaslik bo‘yicha zarur chora-tadbirlarni amalga oshirishni yo‘lga qo‘yish;

**-joriy yilning 5-iyunidan boshlab 15-oktabrigacha** bo‘lgan muddatda, haftaning dushanba-shanba kunlari 9:00 dan 18:00 gacha ishlaydigan murojaatlar markazi (“Call markaz”) faoliyatini tashkil etish vazifalari yuklatilsin.

#### 4. Ushbu buyruqning ijro nazoratini o‘z zimmamda qoldiraman.

**Asos:**O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 24-maydagি PF-81-sonli ”Oliy ta’lim tashkilotlariga o‘qishga qabul qilish va davlat buyurtmasini joylashtirish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi farmoni

Rektor



O. Xamidov

T/r	Xodimning F.I.Sh.	Lavozimi va qabul komissiyasidagi xizmat vazifasi
1.	O.X. Xamidov	Rektor, <b>qabul komissiyasi raisi</b>
2.	R.G‘. Jumayev	O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor, <b>qabul komissiyasi raisi o‘rinbosari</b>
3.	O‘.U. Rashidov	Moliya-iqtisod ishlari bo‘yicha prorektor, <b>qabul komissiyasi raisi o‘rinbosari</b>
4.	A.T. Jo‘rayev	Xalqaro hamkorlik bo‘yicha prorektor, <b>xorijiy fuqarolarni talabalikka qabul qilish bo‘yicha qabul komissiyasi raisi o‘rinbosari</b>
5.	S.S. Davlatov	Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrasi mudiri, <b>qabul komissiyasi mas’ul kotibi</b>
6.	A.A. Avezov	Axborot texnologiyalari fakulteti dekani o‘rinbosari, <b>2-oliv ta’lim bo‘yicha mas’ul kotib o‘rinbosari</b>
7.	M.A.Sharopov	O‘quv-uslubiy departament bosh mutaxassis, <b>Call markaz rahbari</b>
8.	Sh.Sharopov	Yuridik bo‘lim boshlig‘i, <b>a’zo</b>
9.	O.O.Jalolov	BuxDU Matbuot kotibi, <b>qabul jarayonini OAvda yoritish</b>
10.	Sh.Xudoyberdiyev	O‘quv-uslubiy departament boshlig‘i o‘rinbosari, <b>ko‘chirish va tiklash bo‘yicha mas’ul</b>
11.	Yo.K. Quliyev	Korrupsiyaga qarshi kurash va komplayens-nazorat tizimini boshqarish bo‘limi boshlig‘i, <b>korrupsiyaviy holatlarni oldini olish bo‘yicha mas’ul</b>
12.	A.M. Umedov	Botanika va o’simliklar fiologiyasi kafedrasi laboratoriyasi mudiri, <b>Call markaz a’zosi, surdotarjimon</b>
13.	O.M. Fayzullayev	Fakultetlararo chet tillar kafedrasi mudiri, <b>ko‘zi ojiz abituriyentlar bo‘yicha mas’ul</b>
14.	F.Nekova	Hisobchi, <b>shartnomalarni rasmiylashtirish bo‘yicha mas’ul</b>
15.	M.Qilichov	Qo‘shma ta’lim dasturlarini muvofiqlashtiruvchi bo‘lim boshlig‘i v.b., <b>qo‘shma ta’lim dasturlar qabuli bo‘yicha mas’ul</b>
16.	M.Z.Husenov	Raqamli ta’lim texnologiyalari departamenti boshlig‘i, <b>texnik xizmat ko‘rsatish guruh rahbari</b>
17.	A.A.To‘rayev	Magistratura bo‘limi boshlig‘i, <b>magistraturaga hujjatlarni qabul qilish bo‘yicha mas’ul</b>
18.	J.Atamurodov	Axborot tizimlari va texnologiyalari kafedrasi doktoranti, <b>mas’ul operator</b>

19.	U.O.Po'lotov	O‘quv-uslubiy department yetakchi mutaxassisи, <b>mas’ul operator yordamchisi</b>
20.	S.S. Xo‘jayev	O‘quv-uslubiy boshqarma yetakchi mutaxassisи, <b>qabul jarayoni bo‘yicha buyruqlarni rasmiylashtirish bo‘yicha mas’ul</b>
21.	A.A. Raupov	O‘quv-uslubiy departament mutaxassisи, <b>Video tasvir bo‘yicha mas’ul</b>
22.	M.O.Jalolov	O‘quv-uslubiy departament mutaxassisи, <b>Video tasvir bo‘yicha mas’ul</b>

**Buxoro davlat universitetida 2024/2025 o‘quv yili qabul jarayoni hamda kasbiy  
 (ijodiy) imtihonlarga**  
**tayyorgarlik ko‘rish va ularni yuqori saviyada o‘tkazish bo‘yicha**  
**YO‘L XARITA**

T/r	Chora-tadbir nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Muddat	Mas’ullar:
1.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 15 iyundagi «Davlat oliy ta’lim muassasalaréiga o‘qishga qabul qilish jarayonlarini tashkil etish to‘g‘risida»gi PQ-279-sون qarori belgilangan vazifalarni ijrosini ta’minalash.	<p>1. Buxoro davlat universitetining 2024/2025 o‘quv yili qabul komissiyasi tarkibini shakllantirish;</p> <p>2. Qabul jarayonini yuqori saviyada o‘tkazish maqsadida seminar-treninglar tashkil qilish;</p> <p>3. Ishchi guruh a’zolarining qabulga oid savodxonligini oshirish bo‘yicha o‘quvlar tashkil qilish, axborot-tahliliy materialarning o‘qib o‘rganishini tashkil etish;</p>	5.06.2024	R.G‘.Jumayev, S.S.Davlatov O‘.U.Rashidov, Y.Quliyev, Sh.Tursunov, M.Husenov
2.	2024-yil 27-maydagi “Oliy va professional ta’lim tashkilotlari talabalari va o‘quvchilariga budget mablag‘lari hisobidan ta’lim kreditini ajratish tartibini takomillashtirish to‘g‘risida” PF-82-soni Farmonda belgilangan vazifalarni ijrosini ta’minalash.	<p>1. Qabul komissiyasi faoliyatini universitet rasmiy veb-sahifasi va ijtimoiy tarmoqdagi sahifalariga yoritib borish.</p> <p>2. Abituriyentlar uchun kasbga yo’naltirish tadbirlarini tashkil etish (brashuralar, video roliklar, ochiq eshiklar kuni)</p> <p>3.Korrupsiogen holatlarning oldini olish maqsadida xodimlar o‘rtasida targ‘ibot ishlarini amalga oshirish va kafolat xatlarni olish;</p>	15.06.2024  Har haftaning shanba kuni yangilab borish	R.G‘.Jumayev, S.S.Davlatov , Y.Quliyev, M.Husenov Fakultet dekanlari
3.	2024/2025 o‘quv yili uchun ajratilgan qabul parametrlarining tillar kesimidagi taqsimotini shakllantirish hamda Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga taqdim etish.	<p>1. Universitet Kuzatuv kengashida 2024/2025 o‘quv yili qabul parametrlarini tasdiqlash to‘g‘risidagi masalani kiritish.</p> <p>2. Kadrlar iste’molchilarini buyurtmasi asosida shakllangan qabul</p>	20.06.2024	R.G‘.Jumayev, S.S.Davlatov S.Xamidov,

		parametrlarini Universitet Kuzatuv kengashi yig‘ilishida tasdiqlash hamda tillar kesimida Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga taqdim etish.		
4.	Buxoro davlat universitetining qabul komissiyasi faoliyat olib borishi uchun ajratilgan xonalarni zarur jihozlar bilan ta’minlash.	1. Xonalarni zarur kompyuterlar, aloqa vositalari va internet, sovitish vositalari, muzlatgich, kanselyariya mollari hamda shaffoflikni ta’minlash maqsadida xonalarga kuzatuv kameralarini o‘rnatish.	05.06.2023	O‘.U.Rashidov, S.S.Davlatov, Sh. Tursunov
5.	Qabul jarayoniga tayorgarlik ko‘rish va yuqori saviyada o‘tkazish maqsadida abituriyentlar va ota-onalarini qiziqtirgan savollarga tezkor javob berilishini ta’minlash uchun <b>Call markaz</b> hamda <b>maslahat xonalarini</b> tashkil etish va mas’ul xodimlarni biriktirish.	1. Abituriyentlar va ota-onalarini qiziqtirgan savollarga tezkor javob berilishini ta’minlash uchun “Call center” hamda maslahat xonalarini ajratish. 2. Xonalarni jihozlar, aloqa hamda axborot texnologiyalari vositalari bilan jihozlash. 3. Muomala madaniyatiga ega bo‘lgan tajribali, mas’uliyatlari xodimlarni biriktirish va rag‘batlantirish choralarini ko‘rish.	5.06.2024	O‘.U.Rashidov, S.S.Davlatov, Sh. Tursunov
6.	<a href="http://www.abit.buxdu.uz">www.abit.buxdu.uz</a> veb-saytini qabul jarayoni hamda ijodiy (kasbiy) imtihonlarga tegishli bo‘lgan ma’lumotlar bilan to‘ldirib borish hamda uning jozibadorligini va informativligini oshirish.	1. <a href="http://www.abit.buxdu.uz">www.abit.buxdu.uz</a> veb-saytini tashkil etish hamda qabul jarayoni, ijodiy (kasbiy) imtihonlarga tegishli bo‘lgan ma’lumotlar bilan to‘ldirib borish; 2. Qabul jarayoniga oid qarorlar, qabul qilingan me’yoriy hujjatlar va ularning mazmun-mohiyati, jarayonlardagi soddalashtirilgan tizim hamda imtiyozlar haqida doimiy informatsion ma’lumotlar, infografikalar tayyorlash va joylashtirish.	Doimiy	S.S.Davlatov M.Husenov, A.Avezov
7.	Doimiy ravishda Bilim va malakalarni baholash agentligi bilan ma’lumotlar almashinuvini tashkillashtirish va umumlashtirish ishlarini amalga oshirish uchun alohida xona ajratish va uni axborot texnologiya	1. Ma’lumotlarni kompyuterga qayta ishlash va umumlashtirish guruhi shakllantirish; 2. Uzlksiz ish faoliyatini ta’minlash maqsadida alohida xona ajratish va uni axborot texnologiya vositalari (kompyuter, yuqori unumdarlikka ega printerlar,	10.06.2024	O‘.U.Rashidov S.S.Davlatov M.Husenov, J.Atamurodov

	vositalari bilan jihozlash.	aloqa vositalari va b.) bilan jihozlash.		
8.	Chet abituriyentlarni qilish mexanizmlarini ishlab chiqish, xususan qabul haqida informatsion materiallar tayyorlash va tarqatish.	ellik jalb 1. Informatsion materiallar tayyorlash, universitet veb-sayti hamda ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqatish.	Doimiy	A.T. Jo‘raev M.Qilichev
9.	Alohida iqtidor talab etiladigan ta’lim yo‘nalishlarida o‘tkaziladigan kasbiy (ijodiy) imtihonlarda universitet darvozasi oldida abituriyentlarning ota-onalari va boshqa hamroh fuqarolarning guruh bo‘lib yig‘ilmaslik choralarini ko‘rish;	1. Alohida iqtidor talab etiladigan ta’lim yo‘nalishlarida o‘tkaziladigan kasbiy (ijodiy) imtihonlarda universitet darvozasi oldida abituriyentlarning ota-onalari va boshqa hamroh fuqarolarning guruh bo‘lib yig‘ilmaslik choralarini ko‘rish; 2. Abituriyentlarning ota-onalari va boshqa hamroh fuqarolar uchun kuzatuv markazini tashkil qilish va buxdu.uz rasmiy kanaliga e’lonlarni doimiy berib borish; 3. Mazkur mavzudagi chaqiriqlarni targ‘ib qiluvchi katta o‘lchamdagи bannerlarni tayyorlash va universitetga kirish qismlariga ilib qo‘yish; 4. Mazkur mavzudagi chaqiriqlarni targ‘ib qiluvchi materiallar bilan OA Vlarida chiqishlar qilish, roliklar berib borish.	Doimiy	S.S.Davlatov O‘.U.Rashidov, O.M.Fayzullayev
10.	Alohida iqtidor talab etiladigan ta’lim yo‘nalishlarida o‘tkaziladigan o‘tkaziladigan kasbiy (ijodiy) imtihonlar dasturi va va baholash mezonlarini ishlab chiqish va imtihonlarni o‘tkazishda ichki ishlar, milliy gvardiya va sog‘liqni saqlash boshqarmasi bilan hamkorlikda tashkil etish.	1. Imtihonlar dasturi va va baholash mezonlarini ishlab chiqish va universitet saytiga joylashtirish, imtihonlarni o‘tkazish bo‘yicha komissiyalar raislari va a’zolarini tasdiqlash; 2. Kasbiy (ijodiy) imtihonlarning turi va xususiyatidan kelib chiqib, imtihon olinadigan binolarni videokuzatuv kameralari bilan jihozlar bilan ta’minlash; 3. Kasbiy (ijodiy) imtihonlarda abituriyentlar uchun sport inventarlari, chizuv qog‘ozi, qalam, ruchka va h.k.z zarur o‘quv qurollari bilan ta’minlash.	01.07.2024	S.S.Davlatov, O‘.U.Rashidov, Sh.Tursunov, A.Sh.Inoyatov, S.S.Azimov

		4. Alohida iqtidor talab etiladigan ta'lim yo'nalishlarida o'tkaziladigan kasbiy (ijodiy) imtihonlarni o'tkazish jarayonida jamoat tartibini saqlash hamda karantin talablariga rioya etilishini ta'minlash maqsadida Ichki ishlar va DSOM xodimlarini ajratish bo'yicha xatlar tayyorlash.		
11.	Alohida iqtidor talab etiladigan ta'lim yo'nalishlarida o'tkaziladigan o'tkaziladigan kasbiy (ijodiy) imtihonlar uchun zarur bino va inshootlarni tayyorlash, qabul jarayonida murojaat qiluvchi abituriyentlar va ularning ota-onalari hamda kasbiy (ijodiy) imtihon topshiruvchi abituriyentlarni universitet hududiga kiritishda sanitariya-gigiena talablariga qat'iy rioya etilishiini ta'minlash.	1. Alohida iqtidor talab etiladigan ta'lim yo'nalishlarida o'tkaziladigan kasbiy (ijodiy) imtihonlar uchun zarur bino va inshootlarni tayyorlash; 2. Murojaat qiluvchi abituriyentlar va ularning ota-onalari hamda kasbiy (ijodiy) imtihon topshiruvchi abituriyentlarni universitet hududiga kiritishda sanitariya-gigiena talablariga qat'iy rioya qilish; 3. Bino va inshootlarda belgilangan talablar asosida dezinfeksiya va tozalash, obodonlashtirish tadbirlarini amalga oshirish.	Doimiy	S.S.Davlatov O'.U.Rashidov, O.M.Fayzullayev, Sh. Tursunov
12.	Bilim va malakalarni baholash agentligining rasmiy <a href="http://www.my.uzbmb.uz">www.my.uzbmb.uz</a> veb-saytidan ro'yxatdan o'tgan va alohida iqtidor talab etiladigan ta'lim yo'nalishlarida abituriyentlarning ta'lim yo'nalishlari kesimida guruuhlar ro'yxatini shakllantirish	1. Bilim va malakalarni baholash agentligining rasmiy veb-saytidan ro'yxatdan o'tgan va kasbiy (ijodiy) imtihon topshiradigan abituriyentlarning ta'lim yo'nalishlari kesimida guruuhlar ro'yxatini shakllantirish; 2. Alohida iqtidor talab etiladigan ta'lim yo'nalishlarida abituriyentlarning ta'lim yo'nalishlari kesimida guruuhlar ro'yxatini shakllantirish va ro'yxatni abituriyentlar e'tiboriga yetkazish maqsadida <a href="http://www.buxdu.uz">www.buxdu.uz</a> rasmiy kanalining tegishli sahifalariga joylashtirish.	05.07.2024	S.S.Davlatov O.M.Fayzullayev A.Sh.Inoyatov, S.S.Azimov
13.	Alohida iqtidor talab etiladigan ta'lim yo'nalishlari uchun o'tkaziladigan kasbiy	1. Alohida iqtidor talab etiladigan ta'lim yo'nalishlari kasbiy (ijodiy) imtihonlarini	Belgilangan muddatda	S.S.Davlatov Sh. Tursunov, O.M.Fayzullayev

	(ijodiy) imtihonlarda abituriyentlar uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish.	<p>o'tkazish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish;</p> <p>2. Har bir guruhning kasbiy (ijodiy) imtihonlarga kelish sanasi va kunning aniq vaqtini qat'iy belgilash va uninig ijrosiga qat'iy amal qilish.</p> <p>3. Bino oldida abituriyentlarning kutib turishi uchun ijtimoiy masofani ta'minlagan holda o'rniqliar joylashtirish;</p> <p>4. Ta'lif yo'nalishida kasbiy (ijodiy) imtihon topshiradigan abituriyentlar sonidan kelib chiqib, imtihonlarni belgilangan vaqtda o'tkazish choralar ko'rish.</p>		
14.	Ko'zi ojiz va kar (eshitishi zaif), soqov abituriyentlardan kirish imtihonlarini tashkil etish bo'yicha zarur shart-sharoitlarni tashkil qilish.	<p>1. Bilim va malakalarni baholash agentligining rasmiy veb-saytidan ro'yxatdan o'tgan ko'zi ojiz va kar (eshitishi zaif), soqov abituriyentlarning ta'lif yo'nalishlari kesimida ro'yxatini olish;</p> <p>2. "Ko'zi ojizlar jamiyat" Buxoro viloyat bo'limiga kirish imtihonlarida bir nafar jamiyat a'zosi ishtirokini ta'minlash bo'yicha xat tayyorlash va a'zoning ishtirokini ta'minlash;</p> <p>3. Ko'zi ojiz abituriyentlardan qabul qilingan kirish imtihonlarini to'liq, sifatli videotasvirga olish va saqlashni ta'minlash;</p> <p>4. Ko'zi ojiz abituriyentlardan qabul qilingan kirish imtihonlari natijalarini shu kuning o'zida e'lon qilish.</p>	Belgilangan muddatda	S.S.Davlatov O.M.Fayzullayev, Ishchi guruh a'zolari

**Buxoro davlat universitetida 2024/2025 o'quv yili uchun abituriyentlar va ularning  
ota-onalarni qiziqtirgan savollarga tezkor javob berish "Call-center" telefon  
raqamlariga mas'ullar**

<b>t/r</b>	<b>Telefon raqamlar</b>	<b>Murojaat tili va yo'nalishi</b>	<b>Mas'ul mutaxassislar</b>
1.	+99865 221-27-14	O'zbek, Rus tilida (bakalavriat va magistratura)	Davlatov Suxrob
2.	+99865 221-30-46	O'zbek tilida (bakalavriat) surdotarjimon	Abdiyeva Moxigul Abdurahmon Umedov
3.	+99865 221-29-06	O'zbek tilida, Rus tilida (bakalavriat)	Izzatova Moxira Axmedov Azimjon
4.	+99865 221-26-85	O'zbek tilida (bakalavriat)	Sharopov Mirjon Fattoyev Qambar
5.	+99865 221-26-81	Rus tilida (bakalavriat)	Umarova Dilora Gulboyev Shaxzodbek
6.	+99865 221-25-87	Rus tilida (bakalavriat)	Sharipova Nigora
7.	+99865 221-27-66	O'zbek tilida, Rus tilida (Magistratura)	To'rayev Akmal Ergashev To'lqin